OZIQ-OVQAT SANOATIDA KICHIK KORXONALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	825
Mavlanova Barchinoy Shonazar qizi	
BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHDA INVESTITSİYALAR AHAMIYATINING EMPIRIK TAHLILI	831
Nazarova Ra'no Rustamovna, Najmiddinov Yahyo Fazliddin o'g'li	
YASHIL TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA MEHMONXONALAR ROLI: MUAMMOLAR VA IMKONIYATLAR.....	840
Raxmonova Nigina Anvarovna	
IJTIMOII SIYOSAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI: O'ZBEKISTONNING AMALIY YONDASHUVI VA RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....	844
Bafojev Farrux Jo'raqulovich	
AHOLI IJTIMOII HIMOYASINI KUCHAYTIRISH MUAMMOLARI	852
Ulashev Xubbim Askarovich	
YASHIL TA'LIM RIVOJLANISH BOSQICHLARI: YAPONIYA MISOLIDA	856
Raxshona Nabibullayeva	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ELEKTRON SAVDONING MINTAQA IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIRI.....	861
Mo'minov Yahyobek Shokirjon o'g'li	
TUROPATORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	865
Toshev Akmal Salimovich	
TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH ORQALI MINTAQADA AHOI DAROMADLARINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	874
Quldasheva Maftuna Musurmon qizi	
ФАКТОРЫ И МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ.....	878
Алиева Эльнара Аметовна, Рахматхонов Саидодилхон Расулхон угли	
МЕХАНИЗМЫ УСТОЙЧИВОГО ФИНАНСИРОВАНИЯ В СТРАНАХ С РАЗВИВАЮЩЕЙСЯ ЭКОНОМИКОЙ: РОЛЬ ESG-ИНСТРУМЕНТОВ, ДИНАМИКА РАЗВИТИЯ РЫНКА ЗЕЛЁНЫХ ОБЛИГАЦИЙ И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ПОДХОДЫ НА ПРИМЕРЕ УЗБЕКИСТАНА И МАЛАЙЗИИ.....	884
Нарзуллаева Мехрангиз Ақобировна	
DORIVOR O'SIMLIKLAR SAVDOSIDA QIYMAT ZANJIRI TAHLILI: IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH OMILLARI.....	893
Maftuna Ermatova Arslonbek qizi	
O'ZBEKISTON VA TURKMANISTON O'RTASIDAGI SAVDO AYLANMASI TAHLILI	899
Voxidova Mehri Xasanovna	
GLOBAL KOMPANIYALARDA RAQAMLI MENEJMENTNING SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI	905
Axmedov Sardor Shuxrat o'g'li	
IQLIM O'ZGARISHLARI VA GLOBALLASHUV SHAROITIDA EKOLOGIK-HUQUQIY TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH.....	912
Jumanazar Xolmuminov	
YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING JAHON TAJRIBASI	916
Kalandarova Elnura Muzaffar qizi	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA HUDUDLARNING INVESTITSIYAVII JOZIBADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	921
Rahmatullayev Bobir Chorshamiyevich	



FINANCING WATER RESILIENCE: A FEASIBILITY ANALYSIS OF SOVEREIGN BLUE BOND ISSUANCE IN UZBEKISTAN.....	926
Yakubov Jakhongir	
УКРЕПЛЕНИЕ ПАРТНЁРСТВО И СОЗДАНИЕ ЕДИНСТВЕННОГО ЭНЕРГОРЫНКА В УЗБЕКИСТАНЕ	929
Каримова Нуржахон Олим кизи	
ИННОВАЦИОННАЯ ЗРЕЛОСТЬ ПРЕДПРИЯТИЯ КАК ФАКТОР РОСТА ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ: МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПРИМЕНЕНИЯ КОМПЛЕКСНОЙ МОДЕЛИ	935
Алиева Эльнара Аметовна, Табаков Евгений Сергеевич	
"BUDJET JARAYONLARIDA XAVFLARNI ANIQLASH VA BAHOLASH: ICHKI AUDIT YONDASHUVLARI"	941
Abdujalilova Dilnoz Abdusattorovna, Nishonxo'djaev Bekzod Baxodir o'g'li	
IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA DAVLATNING ROLI	947
Raximov Baxromjon Ibroximovich	
O'ZBEKISTONDA SUT SEKTORINING QIYMAT ZANJIRINI SANOATLASHTIRISH MUAMMOLARI.....	951
Urazov Jamshidjon Sa'dullayevich	
STRATEGIK BOSHQARUV HISOBIDA XARAJATLAR HISOBİ VA KALKULYATSIYA TIZIMLARINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH YO'NALISHLARI	955
Hamroyeva Zuhra Amiral qizi	
АНАЛИЗ И ОЦЕНКА ТЕКУЩЕГО СОСТОЯНИЯ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ФИНАНСОВОЙ БЕЗОПАСНОСТИ В АЗЕРБАЙДЖАНЕ	961
Ариф Мустафаев	
ФАКТОРЫ ВЛИЯЮЩИЕ НА ИЗМЕНЕНИЯ ДОХОДОВ НАСЕЛЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА В УСЛОВИЯХ РЫНОЧНОЙ ЭКОНОМИКИ.....	968
Ишонкулова Феруза Асатовна	
O'ZBEKISTONNING INVESTITSION HUQUQIY SIYOSATIDA GLOBAL REYTINGLARNING NORMATIV-HUQUQIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	974
Gavhar Bekmurodova Adham qizi	
XALQARO MOLIYA BOZORIDA KREDIT RISKINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY USULLARI VA RISKLARNI BOSHQARISH TIZIMINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	981
Ochilova Xusniya Olim qizi, Yuldasheva Umida Asanaliyevna	
JAHONDA BRONLASH TIZIMLARINING RIVOJLANISH BOSQICHLARINING EVOLYUTSIYASI.....	987
Ismatillaeva Sitara Sayfidin qizi	
MILLIY IQTISODIYOT INNOVATSION SALOHİYATIDAN SAMARALI FOYDALANISHDA JAHON TAJIRIBALARI.....	994
Samadqulov Muhammadjon Islom o'g'li	
HUDUDIY RIVOJLANISHDA SOLIQ IMTIYOZLARINING AHOLI DAROMADLAR DINAMIKASIGA TA'SIRI.....	998
Olimjon Fattoyev G'ayrat o'g'li	
OLIY TA'LIM MUASSASALARINING ZAMONAVIY SHAROITLARDA RAQOBATBARDOSHLIGI: NAZARIY JIHATLARI VA AMALIY BOSHQARUV STRATEGIYALARI	1002
Adizov Bobir Baxtiyorovich	
ZAMONAVIY SHAROITDA TADBIRKORLIK FAOLIYATI RISKLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	1005
Sirojiddinov Kamoliddin Ikromiddinovich, Nasritdinov Bekzod Xusnutdinovich	
NAMANGAN VILOYATIDA QURILISH KLASHTERINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY OMILLARI VA ISTIQBOLLI MANBALARI.....	1011
Abduraxmanov Muxtorali Abduvoxidovich	
ПЕРСПЕКТИВЫ ПОВЫШЕНИЯ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ	1016
Авезова Шахноза Махмуджановна	
MOLIYAVIY SAVODXONLIKNI OSHIRISHGA TA'SIR KO'RSATADIGAN OMILLAR.....	1022
Obilov Mirkomil Rashidovich	



“O‘ZBEKISTONDA TURIZMNING MADANIY IDENTIKLIKKA TA’SIRI: SOTSIOLOGIK TAHLIL”	1028
Alijonova Nargiza Rashidjon qizi	
STATISTICAL ANALYSIS OF CREDIT INTEREST RATES.....	1034
Abdullayev Shakhobiddin Shamsiddinovich	
QISHLOQ XO‘JALIGIDA LOGISTIKA XARAJATLARINI OPTIMALLASHTIRISH METODLARI VA SAMARALI TA‘MINOT ZANJIRI MODELI.....	1037
Olimova Bahora Shuxratovna	
INNOVASION IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY JIHATLARI.....	1042
Abdulxakimov Zuxrali Tursunaliyevich	
TIJORAT BANKLARIDA DEPOZIT BAZASI BARQARORLIGIGA TA’SIR ETUVCHI OMIL SIFATIDA FOIZ SIYOSATI VA UNING AMALIY JIHATLARI.....	1047
Axmedova Dilafro‘z Elshodovna	
B2BDA RAQAMLI MARKETINGDAN FOYDALANISH BO‘YICHA XORIJIY TAJRIBALAR.....	1053
Abdubotirova Madinaxon	
ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИЙ МЕХАНИЗМ ИННОВАЦИОННО - ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ.....	1059
Баходирова Хилола Баходировна	
RAQOBATBARDOSH MAHSULOT ISHLAB CHIQRISHDA YASHIL MARKETING STRATEGIYASIDAN FOYDALANISH.....	1063
Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, Abdurazakova Diyora	
ENERGIYA XARAJATLARINI KAMAYTIRISHNING IQTISODIY SAMARASI.....	1070
Urmanbekova Iroda Farxodovna	
PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF REMOTE BANKING SERVICES IN THE CONTEXT OF BANKING TRANSFORMATION	1075
Jabborov Bahriddin Rashidovich	
MIKROMOLIYA TASHKILOTLARIDA MOLIVAVIY-XO‘JALIK FAOLIYATINI BUXGALTERIYA HISOBIDA AKS ETTIRISH TARTIBI.....	1079
G‘ofurov Iskandar Abduraxmonovich	



MIKROMOLIYA TASHKILOTLARIDA MOLIYAVIY-XO'JALIK FAOLIYATINI BUXGALTERIYA HISOBIDA AKS ETTIRISH TARTIBI

G'ofurov Iskandar Abduraxmonovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali

ORCID: 0009-0003-5021-746X

gafurov_iskandar@sbtsue.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada mikromoliya tashkilotlarining moliyaviy-xo'jalik faoliyatini buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi nazariy va amaliy nuqtai nazardan tahlil etilgan. Foiz tushumlari, kreditlar ajratilishi, kechiktirilgan to'lovlar, zaxiralar shakllanishi va boshqa asosiy operatsiyalarning buxgalteriya yozuvlarida aks ettirilishi IMKON FINANS, Vodiy Taraqqiyot va Biznes Finans mikromoliya tashkilotlari misolida o'rganilgan. Tahlil natijalariga asosanib, hisob siyosatini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: mikromoliya, buxgalteriya hisobi, foiz tushumi, kreditlar, zaxira, hisob siyosati, real tushum, kechikkan to'lovlar, ehtiyotkorlik, moliyaviy faoliyat, buxgalteriya yozuvi, monitoring.

Abstract. This article explores the theoretical and practical aspects of accounting for financial and economic activities in microfinance institutions. It analyzes interest income, loan disbursement, overdue payments, reserve creation, and other core operations using data from IMKON FINANS, Vodiy Taraqqiyot, and Biznes Finans. Based on the analysis, the paper provides practical recommendations for improving the accounting policies of microfinance institutions.

Key words: microfinance, accounting, accounting policy, interest income, loans, reserves, delayed payments, financial operations, transparency, risk, income, prudence.

Аннотация. В статье рассматриваются теоретические и практические аспекты отражения финансово-хозяйственной деятельности микрофинансовых организаций в бухгалтерском учете. Проанализированы учет процентов, выдачи кредитов, просроченных платежей, создания резервов и других операций на примере МФО IMKON FINANS, Vodiy Taraqqiyot и Biznes Finans. По итогам анализа предложены рекомендации по совершенствованию учетной политики организаций.

Ключевые слова: микрофинансы, бухгалтерский учет, учетная политика, процентные доходы, кредиты, резервы, просрочки, денежный поток, прозрачность, операции, доходы, риск.

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mikromoliya tashkilotlari aholini moliyaviy resurslar bilan ta'minlash, kichik va o'rta biznesni rag'batlantirish, kambag'allikni kamaytirish kabi muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni bajaradi. Bunday tashkilotlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash va faoliyatini huquqiy asosda yuritish esa to'g'ri tashkil etilgan buxgalteriya hisobiga bevosita bog'liq. Ayniqsa, moliyaviy-xo'jalik faoliyatining to'liq, aniq va shaffof aks ettirilishi hisob siyosatining muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi.

Mikromoliya tashkilotlarida buxgalteriya hisobini yuritish umumiy qoidalardan farqli ravishda ayrim xususiyatlarga ega. Bunga kredit bitimlarining o'ziga xosligi, mijozlar bilan tuziladigan shartnomalar turi, foiz stavkalarining shakllanishi, kechiktirilgan to'lovlar, rezervlar shakllanishi, grant va subsidiyalar hisobining yuritilishi kabi omillar kiradi. Mazkur xususiyatlar moliyaviy-xo'jalik operatsiyalarining buxgalteriya hisobida aks ettirilishini chuqur va tizimli yondashuv orqali tashkil etishni talab etadi.



Ushbu maqolada mikromoliya tashkilotlarida moliyaviy-xo'jalik faoliyatining asosiy yo'nalishlari, ularni buxgalteriya hisobida ifodalash tartibi, hisob registrlarida aks ettirish shakllari hamda mavjud amaliyotlar asosida tahliliy yondashuvlar bayon etiladi. Shuningdek, O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan IMKON FINANS, Vodiy Taraqqiyot va Biznes Finans mikromoliya tashkilotlari ma'lumotlari asosida amaliy tahlil o'tkazilib, samarali hisob yuritish bo'yicha tavsiyalar shakllantiriladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Mikromoliya tashkilotlarining moliyaviy-xo'jalik faoliyatini buxgalteriya hisobida aks ettirish masalasi xalqaro va mahalliy miqyosda muhim ilmiy va amaliy masalalardan biri hisoblanadi. Xalqaro amaliyotda bu borada ko'plab ilmiy tadqiqotlar va standartlar ishlab chiqilgan. Jumladan, E. Rhyne o'z tadqiqotida ta'kidlaydi: "mikromoliya tashkilotlarida hisob yuritish tizimi nafaqat moliyaviy shaffoflikni ta'minlashi, balki ular bilan ishlovchi donorlar va investorlarga ishonch yaratishi kerak" [2].

M. Yunus mikromoliyalashning ijtimoiy xususiyatlariga urg'u berib, "bunday tashkilotlarda moliyaviy axborot bilan bir qatorda ijtimoiy natijalarni ham hisobda aks ettirish zarur"ligini ta'kidlaydi [1]. Bu yondashuv moliyaviy-xo'jalik faoliyatini hisobda ko'rsatishda indikatorlar va daromadlarning ijtimoiy kontekstda tahlil qilinishini talab qiladi.

Mahalliy tadqiqotlar orasida N.G. Pikuzonning asari alohida e'tiborga loyiq: "mikromoliyaviy tuzilmalarda garov, kechiktirilgan to'lovlar va kredit foizlarini hisoblashda maxsus buxgalteriya yondashuvlari zarur" deb qayd etiladi [3]. Shu bilan birga, ichki audit va ichki nazorat elementlarini hisobga olish buxgalteriya hisobotlarining aniqligini oshirishda muhim vosita sifatida qaraladi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining buxgalteriya hisobiga oid normativ hujjatlari, xususan, "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonun va buxgalteriya hisobotlarini yuritish tartibi to'g'risidagi qarorlar asosiy metodologik manba sifatida xizmat qiladi. Ularda mikromoliya tashkilotlarining moliyaviy operatsiyalarini hisobda to'g'ri aks ettirish bo'yicha umumiy qoidalar belgilab berilgan.

Bundan tashqari, IMKON FINANS, Vodiy Taraqqiyot va Biznes Finans mikromoliya tashkilotlarining yillik hisobotlari ham amaliy material sifatida xizmat qilib, buxgalteriya hisobini yuritishda amaliy kamchiliklar va imkoniyatlar tahlilini o'rganishga asos bo'ladi. Xususan, "IMKON FINANS 2022-yil hisobotida foizli daromadlar va kechiktirilgan to'lovlar hisobini alohida guruhlarda yuritish bo'yicha axborotlar mavjud" bo'lib, bu amaliyotning buxgalteriya jarayonlariga integratsiya qilinganini ko'rsatadi.

Shunday qilib, mavjud adabiyotlar mikromoliya tashkilotlarida moliyaviy-xo'jalik faoliyatini buxgalteriya hisobida aks ettirish borasida nazariy asoslar bilan birga amaliy yondashuvlarni ham taqdim etishini ko'rsatmoqda. Biroq, ularning aksariyati ijtimoiy indikatorlar, xavflar va moliyaviy nazorat tizimlari bilan bog'liq bo'lib, buxgalteriya hisobi jarayonlarini kompleks tarzda yoritishga qaratilgan metodik tadqiqotlar hali ham yetarli emas.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda mikromoliya tashkilotlarining moliyaviy-xo'jalik faoliyatini buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi o'rganildi. Asosiy metod sifatida hujjatli tahlil, solishtirma tahlil, statistik tahlil hamda amaliy kuzatuv yondashuvlari qo'llanildi. Empirik baza sifatida IMKON FINANS, Vodiy Taraqqiyot va Biznes Finans mikromoliya tashkilotlarining 2021–2023-yillardagi moliyaviy hisobotlari va biznes rejalari tanlab olindi.

Tadqiqot davomida asosiy xo'jalik operatsiyalari — kredit berish, foiz tushumlarini hisoblash, kechiktirilgan to'lovlar, zaxiralar shakllanishi, ustama daromadlar, operatsion xarajatlar va boshqa harajatlar bo'yicha buxgalteriya yozuvlari tahlil qilindi. Har bir tashkilotda hisob siyosatida aks etgan buxgalteriya usullari solishtirilib, ularning dolzarbligi va zamonaviy yondashuvlarga muvofiqligi baholandi.

NATIJALAR VA TAHLIL

Mikromoliya tashkilotlarining buxgalteriya hisobida asosiy xo'jalik operatsiyalarining to'g'ri aks ettirilishi tashkilotning moliyaviy barqarorligi, axborotning aniqligi va hisobotlarning shaffofligi uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu operatsiyalar ichiga kredit ajratilishi, foizli daromadlar hisoblanishi, kredit bo'yicha to'lovlar, kechiktirilgan qarzarlar, zaxiralar shakllanishi, grant va subsidiyalar, operatsion va boshqa harajatlar kiradi. Har bir operatsiyaning buxgalteriya yozuvlarida qanday ifodalanishi aniq va yagona metodikaga asoslangan bo'lishi lozim.

Quyida mikromoliya tashkilotlarida uchraydigan asosiy xo'jalik operatsiyalarining buxgalteriya hisobida aks ettirilishi misollar asosida umumlashtirilgan:



1-jadval. Mikromoliya tashkilotlarida asosiy xo'jalik operatsiyalarining buxgalteriya hisobida aks ettirilishi

№	Xo'jalik operatsiyasi	Debet hisobi	Kredit hisobi	Izohlar
1	Kredit ajratilishi mijozga	Qisqa muddatli berilgan kreditlar	Kassadagi naqd pullar yoki talab qilib olinguncha depozitlar	Kredit shartnomasi asosida asosiy qarz chiqariladi
2	Foiz daromadining hisoblanishi	Muddatida to'lanmagan hisoblangan foizlar	Foizlardan daromadlar	Har oy yakunida hisob-kitob qilinadi
3	Kredit bo'yicha asosiy qarz qaytarilishi	Kassadagi naqd pullar yoki talab qilib olinguncha depozitlar	Qisqa muddatli berilgan kreditlar	Mijoz asosiy qarzni to'laganida qayd etiladi
4	Foiz to'lovi qabul qilinishi	Kassadagi naqd pullar yoki talab qilib olinguncha depozitlar	Muddatida to'lanmagan hisoblangan foizlar	Foiz to'lovi real vaqtda kirim qilinadi
5	Kechiktirilgan to'lov uchun zaxira ajratilishi	Kelgusi davr foizli daromadlari	Foizlardan daromadlar	Riskli kreditlar bo'yicha ehtiyotkorlik asosida hisobga olinadi
6	Grant mablag'lari qabul qilinishi	Talab qilib olinguncha depozitlar	Boshqa operatsion daromadlar	Nizomiy yordam sifatida qabul qilingan resurslar
7	Operatsion xarajatlar	Boshqaruv xarajatlari	Kassadagi naqd pullar yoki talab qilib olinguncha depozitlar	Ijara, ish haqi, kantselyariya va boshqa xizmatlar uchun
8	Aktivlarni amortizatsiya qilish	Amortizatsiya xarajatlari	Asosiy vositalar bo'yicha amortizatsiya	Har oyning oxirida hisoblanadi

Ushbu jadval asosida tashkilot ichida buxgalteriya yozuvlarini yuritishda yagona yondashuv shakllanishi, shuningdek, ichki audit va moliyaviy monitoring jarayonlari soddalashtiriladi. Ayniqsa, kredit muomalalarini to'liq aks ettirish tashkilotning daromadlilik ko'rsatkichlari, risklarni baholash tizimi va moliyaviy barqarorligini ko'rsatishda muhim mezon hisoblanadi.

Hisob siyosatida ushbu operatsiyalar bo'yicha alohida bandlar kiritilishi, amaliy tartiblar va mas'ullik doirasi belgilanishi zarur. Shu orqali mikromoliya tashkilotlari moliyaviy axborotning ishonchligi, solishtiriluvchanligi va funksional tahlilga mosligini ta'minlay oladi.

Mikromoliya tashkilotlari faoliyatida foiz tushumlari asosiy daromad manbai hisoblanadi. Biroq, bu tushumlarni to'g'ri va ehtiyotkorlik bilan buxgalteriya hisobida aks ettirish tashkilotning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Amaliyotda ba'zan hisoblangan foizlar real tushumga aylanmasligi, ya'ni mijozlar tomonidan kechiktirilishi yoki umuman qaytmasligi mumkin. Shu sababli foiz tushumlarini hisobga olishda real tushumlar bilan hisoblangan tushumlar o'rtasidagi tafovutlarni aniqlashtiruvchi yondashuv zarur bo'ladi.

Shuningdek, foiz daromadlari bilan bog'liq risklarni kamaytirish maqsadida mikromoliya tashkilotlari kechiktirilgan yoki qaytmas kreditlar bo'yicha ehtimoliy zararlar uchun zaxiralar shakllantiradi. Bu zaxiralar "Zararlar uchun zaxiralar" deb nomlangan alohida schyotlarda yuritiladi va ular kreditlar portfeli holatiga qarab muntazam yangilanadi.

Quyidagi jadval mikromoliya tashkilotlarida foiz tushumlari va zaxiralarni hisobga olish amaliyotini aks ettiradi:

2-jadval. Foiz tushumlari va zaxiralarni hisobga olishning buxgalteriya yozuvlari

№	Operatsiya mazmuni	Debet hisobi	Kredit hisobi	Izohlar
1	Foiz daromadining hisoblanishi	Muddatida to'lanmagan hisoblangan foizlar	Foizlardan daromadlar	Har oy yakunida, kredit shartnomasiga asoslangan holda hisoblanadi
2	Foiz to'lovi qabul qilinishi (real tushum)	Kassadagi naqd pullar yoki talab qilib olinguncha depozitlar	Muddatida to'lanmagan hisoblangan foizlar	Mijoz to'lagan vaqtda buxgalteriyada qayd etiladi
3	Kechiktirilgan to'lov bo'yicha zaxira ajratilishi	Kelgusi davr foizli daromadlari (zaxira sifatida)	Foizlardan daromadlar	Risk mavjud bo'lsa, ehtiyotkorlik tamoyiliga asoslanib amalga oshiriladi
4	Kredit portfeli qayta baholanganda zaxira ko'paytirilishi	Kelgusi davr foizli daromadlari	Qisqa muddatli berilgan kreditlar yoki uzoq muddatli kreditlar	Yil yakunida audit yoki tahlil asosida amalga oshiriladi



Amaliy tahlillar shuni ko'rsatadiki, IMKON FINANS mikromoliya tashkilotida 2022-yil yakuniga ko'ra hisoblangan foiz daromadlari 2,1 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa-da, real tushum 1,72 mlrd so'mni tashkil qilgan. Bu esa 18% atrofida foiz kechikish darajasini ko'rsatadi. Bunga nisbatan tashkilot tomonidan 580 mln so'mlik ehtimoliy zarar zaxirasi ajratilgan. Vodiy Taraqqiyot tashkilotida esa bu ko'rsatkich 620 mln so'mni tashkil qilgan.

Foiz tushumlari va zaxiralarni hisobga olishda ehtiyotkorlik tamoyili, solishtiriluvchanlik va to'liqlik prinsiplari asosiy metodologik yondashuvlar sifatida qo'llanilishi zarur. Bu esa moliyaviy hisobotlarning real holatni aks ettirishi, risklarni nazorat ostida ushlab turish va foydalanuvchilarga ishonchli axborot yetkazishga xizmat qiladi.

Mikromoliya tashkilotlarida foiz tushumlari va kechiktirilgan to'lovlar bilan bog'liq buxgalteriya amaliyotlarini to'liq ifodalash maqsadida foiz daromadlari, real tushumlar, foiz tushumlari kechikish darajasi hamda ajratilgan zaxiralar bo'yicha umumlashtirilgan jadval tuzish muhim hisoblanadi. Quyidagi jadval 2022-yil yakunlari bo'yicha IMKON FINANS, Vodiy Taraqqiyot va Biznes Finans mikromoliya tashkilotlarining amaliy ko'rsatkichlariga asoslangan bo'lib, foiz tushumlarining hisoblanishi va real tushumlar o'rtasidagi tafovutni tahlil qilish imkonini beradi.

3-jadval. Mikromoliya tashkilotlarida foiz tushumlari, real tushumlar va zaxiralar bo'yicha umumlashtirilgan tahlil

No	Tashkilot nomi	Hisoblangan foiz daromadi (mln so'm)	Real tushgan foiz daromadi (mln so'm)	Tushumlar farqi (mln so'm)	Kechikish darajasi (%)	Ajratilgan zaxira (mln so'm)	Zaxira/foiz daromadi nisbati (%)
1	IMKON FINANS	2 100	1 720	380	18.1%	580	27.6%
2	Vodiy Taraqqiyot	1 960	1 610	350	17.9%	620	31.6%
3	Biznes Finans	1 750	1 480	270	15.4%	540	30.9%

Mazkur jadvaldan ko'rinib turibdiki, mikromoliya tashkilotlarida foiz tushumlari hisobda aniq aks ettirilayotgan bo'lsa-da, ularning ma'lum qismi mijozlar tomonidan kechiktirilgan holda yoki umuman to'lanmasdan qolmoqda. Bu esa zaxira ajratishni majburiy qiladi. Masalan, Vodiy Taraqqiyot tashkilotida tushumlar kechikishi 17.9% bo'lishiga qaramay, foiz daromadiga nisbatan zaxira ajratilishi 31.6%ni tashkil qilgan, bu esa ehtiyotkorlik tamoyilining ustuvorligidan dalolat beradi.

Shu orqali tashkilotlar moliyaviy hisobotlarida foiz daromadlarini haddan ziyod baholamasdan, ehtimoliy yo'qotishlarga nisbatan oldindan choralar ko'rib, buxgalteriya axborotlarining ishonchligini ta'minlashga intilmoqda. Jadval asosida yuqori kechikish darajasiga ega tashkilotlarda foizlarni hisoblash metodikasini qayta ko'rib chiqish, kredit monitoringini kuchaytirish va ichki audit tartiblarini yangilash kabi tavsiyalar ilgari surilishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mikromoliya tashkilotlari faoliyatida moliyaviy-xo'jalik operatsiyalarining buxgalteriya hisobida to'g'ri va tizimli aks ettirilishi tashkilotning moliyaviy holati, daromadlilik ko'rsatkichlari hamda umumiy barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ushbu maqolada mikromoliya tashkilotlarida uchraydigan asosiy xo'jalik operatsiyalari, xususan kredit ajratish, foiz tushumlarini hisoblash, zaxiralar ajratish va kechiktirilgan to'lovlarni qayd etish kabi jarayonlar buxgalteriya amaliyotida qanday aks ettirilishi tahlil qilindi.

Amaliy tahlillar shuni ko'rsatadiki, foiz tushumlari bo'yicha hisoblangan va real tushgan daromadlar o'rtasidagi tafovut yuqori bo'lib, bu zaxira shakllantirish zaruratini oshiradi. Ayniqsa, IMKON FINANS, Vodiy Taraqqiyot va Biznes Finans mikromoliya tashkilotlari misolida ko'rilgan ko'rsatkichlar buxgalteriya axborotining ehtiyotkorlik tamoyiliga asoslangan yuritilishini talab etadi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi xulosalarga kelindi: birinchidan, foiz tushumlari real naqd tushumlar asosida baholanishi zarur; ikkinchidan, kechiktirilgan to'lovlar uchun muntazam zaxira ajratish mexanizmi yo'lga qo'yilishi lozim; uchinchidan, asosiy xo'jalik operatsiyalarini yorituvchi hisob siyosati hujjatlari qayta ko'rib chiqilishi kerak.

Shu bilan birga, xalqaro standartlarga mos buxgalteriya uslublarini joriy qilish mikromoliya tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash va tashqi foydalanuvchilar ishonchini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Yunus M. Bank for the Poor / Muhammad Yunus. – M.: Mann, Ivanov i Ferber, 2007. – 320 b.
2. Rhyne E. Mainstreaming Microfinance. – Bloomfield: Kumarian Press, 2001. – 256 p.
3. Pikuzon N.G. Buxgalterskiy uchets zaloqovnykh operatsiy v lombardax. – M.: Finansovyy universitet, 2021. – 183 s.
4. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonun. – T.: Adliya vazirligi, 2022.
5. IMKON FINANS MCHJ yillik hisobotlari (2021–2023). – Andijon: Tashkilot arxivi.
6. Vodiy Taraqqiyot MCHJ moliyaviy hisobotlari (2020–2022). – Farg'ona: Tashkilot moliya bo'limi.
7. Biznes Finans MCHJ moliyaviy tahlil hujjatlari (2021–2023). – Toshkent: Tashkilot arxivi.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>